MAKTABGACHA TARBIYA YOSH DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Eshqulov Sh.R., GDPI o‘qituvchisi
Abdusalomova Sh GDPI talabasi.

Annotatsiya: maktabgacha yosh davri – bu bolaning to‘laqonli rivojlanishiga yo‘l ochuvchi eng muhim bosqich hisoblanib, mazkur davrda bolaga berilgan e’tibor va to‘g‘ri tarbiya uning maktabdagi va keyingi hayotidagi muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi. Shu bois maktabgacha ta’limga davlat va jamiyat tomonidan berilayotgan yuksak e’tibor jamiyatning barqaror kelajagiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh davri, ilk bolalik, o‘yin faoliyati, axloqiy sifatlar, taqlidchanlik, g‘urur va uyatchanlik, tarbiyachi, ijtimoiy faolligi, maqtov, mehrli munosabat, nutq taraqqiyoti, xarakter.

Abstract: preschool education is the most important stage in the development of a child. Therefore, the attention paid by the state and society to preschool education serves the stable future of society.

Key words: preschool time, early childhood, play activities, moral qualities, imitation, pride and shyness, teacher, social activity, praise, kindness, speech development, character.

KIRISH

Bolalarning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning

mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F. Lesgaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislati paydo bo‘lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. Insonning kamol topib voyaga yetishida maktabgacha yoshdagi davrning ahamiyatiga doir P.F. Lesgaftning bu fikri rus pedagogi A.S. Makarenkoning quyidagi fikriga to‘la mos keladi. A.S. Makarenko bolalarni juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolani maktabgacha yoshdan boshlab tarbiyalash orqali yaratiladi, degan edi. Ana shu fikrdan kelib chiqqan holda butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, deb e’tirof etiladi Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdirki, bu davr bolaning kelgusi o‘sishiga albatta o‘z aksini ko‘rsatadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bola tarbiyasiga nihoyatda jiddiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

Bola ilk yoshdan maktabgacha davrda o‘tgach, uning butun yashash sharoitida, yaqin atrofida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Bola atrof-muhit ta’sirida shakllanib boradi. Bola harakatlanar ekan, unga mustaqillik xos bo‘ladi. Harakatlanish natijasida bola o‘z atrofidagi olamni anglaydi va unga munosabat bildiradi. Uning hissiyoti, tafakkuri, harakati bir butun holda rivojlanadi.

Bola hayotining dastlabki yillari – uning kelajakdagi shaxsiyati, bilim olish qobiliyati va ijtimoiy faolligining poydevori bo‘ladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga qulay ta’lim-muhitini yaratish har qanday jamiyatning dolzarb vazifalaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan bo‘lib, bu bosqichda bolalarning har tomonlama rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha yosh davri – bolaning tug‘ilganidan to maktabga borish yoshigacha bo‘lgan (odatda 3–7 yosh) vaqt oralig‘ini qamrab olishini bilib oldik, bu davrda bola tez o‘sadi, ko‘plab yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi. Xalqaro ekspertlar (jumladan, UNESCO) ushbu yoshni “oltin davr” deb ataydilar, chunki aynan shu vaqtda intellektual, psixologik, jismoniy va axloqiy jihatdan asosiy shakllanishlar sodir bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshi quyidagicha guruhlarga bo‘linadi:

1. Kichik guruh (3–4 yosh) – Bola mustaqillikka ilk qadam qo‘yadi. Harakat faolligi kuchayadi, nutq rivojlana boshlaydi.

2. O‘rta guruh (4–5 yosh) – Atrof-muhitni anglash, ijtimoiy munosabatlar, mulohaza yuritish ko‘nikmalari shakllanadi.

3. Katta guruh (5–6 yosh) – Bolada xotira, diqqat, tasavvur kuchi, mantiqiy fikrlash sezilarli darajada rivojlanadi.

4. Tayyorlov guruh (6–7 yosh) – Bola maktab ta’limiga tayyorlanadi. Raqam, harf, o‘qish, matematik hisoblarga oid bilimlar beriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o‘sishida qiziqishning roli kattadir, qiziqish xuddi ehtiyoj kabi, bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biridir.Kattalarning bolaga nisbatan «yaxshi bola» bo‘lgandek emotsional munosabati tuzilganidan va o‘z jinsiga dastlabki qiziqishdan so‘ng, bolada yangi ijtimoiy nuqtai nazar shakllanadi, ya’ni kattalar talablariga javob

berishga intiladi. Bu hissiyot hayotiy yondashuvni belgilaydi. Ma’naviy his va vijdon hurmat qozonishga intilishning ijobiy tarafidir.

Kichik va o‘rta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar qoidalarga amal qilishda ko‘nikadilar va ba’zida hatto «tartibga ortiqcha mehr» qo‘yadilar, qoidalarning kichik buzilishiga munosabatda aniq ziddiyatga kirishadilar. Maktab yoshiga yaqinlashganda esa odatdagi qoidalarga rioya qilish ongli ravishda bajarishga aylanadi.Bu davrda bolalar nafaqat o‘zlari qoidalarga bo‘ysinadigan boshlaydilar, balki boshqa bolalar ham ularga amal qilishlarini nazorat qiladilar.

Kichik va o‘rta bog‘cha yoshdagi bolalarda g‘urur va uyatchanlik rivojlanishi axloq namunalari va qoidalarini o‘zlashtirishda katta ahamiyatga ega.Bu davrda bolada hayotda bo‘layotgan barcha voqea-hodisalar ijtimoiy jihatdan baholanadi. Bola o‘z harakatlarini baholashga harakat qiladi. Avvaliga u o‘z harakatini oila a’zolarining unga munosabati bilan baholaydi. Bola biror harakatdan o‘zini tiyishi ko‘pchilik hollarda o‘zgalar reaktsiyasidan qo‘rqish bilan bog‘liq bo‘ladi. Bola ijobiy baholangan odamlarning harakatini yoqlaydi, salbiy baholanganlarga esa salbiy munosabat bildiradi.

Aniqlanishicha, katta yoshdagi odam bolani o‘ziga moyil qilolsa, uning yutuqlariga sherik va yo‘qotishlarga qayg‘udosh bo‘lsa, bola har doim o‘zini ruhan tetik his qiladi va hatto omadsiz hamda kam harakatga va qarshiliklarning yengib o‘tishga tayyor bo‘ladi. U kattalar bilan ijobiy aloqalar o‘rnatganda, ularga ishonadi, boshqa bolalar va kattalar bilan oson aloqaga kirishadi.

Katta yoshdagi odamda bolaga begonalarcha muomalasi uning ijtimoiy faolilligini pasaytiradi, bu esa bolaning ijtimoiy hayotida ko‘rinib turadi. O‘zini tanitishga harakat qilmaydi, o‘ziga ishonchini yo‘qotadi. Xijolat, yig‘lashga doim tayyor bo‘lib, tengdoshlariga nisbatan boshlagan ishlarini to‘xtadilar, sust va befarq bo‘lib qoladilar.

Ma’lumotlarga qaraganda, maktabgacha tarbiya yoshida boshqa odam mehriga bo‘lgan tashnalik va biron odamga mehr berish istagi birinchi darajali, juda ham zarur ehtiyoj hisoblanadi. Bolaning onaga bo‘lgan mehri bu yoshda alohida o‘rin egallaydi. Uning barcha ehtiyojlari ona orqali amalga oshadi, chunki bu bolaning quvonchi, himoya hissi va emotsional xotirjamlik manbaidir. Bola onasini bevosita mehr ko‘rsatishiga muhtoj bo‘ladi va har qanday holatda onasiga yaqinlashishga harakat qiladi. Bolalar kattalar bilan o‘zaro yaqin aloqa o‘rnatish va uni saqlash bolalar ehtiyojining muhim belgisi hisoblanadi. Ular beradigan yengil shirin ifodalanish. Bolaning kattalar bilan o‘zaro aloqasi ko‘plab hollarda kattalar tomonidan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasligi mumkin bo‘la oladi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yuzaga keladi. Ularning tafakkurlari, asosan, ko‘rgazmali - harakatli bo‘lib, u atrof olamdagi turli bog‘liqliklarni o‘rganishga xizmat qiladi. O‘zidan uzoqroq turgan koptokni biron-bir uzunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko‘rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi.

Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o‘rin tutadi. Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo‘l soatini yoki devordagi osma soatni ham tushunishi mumkin. Lekin, ular

turlicha bo‘lganligi bois, ularda umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq hisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashkil etadi.

2-3 yoshli bolalar ma’lum bir predmetlarning o‘rniga ularning o‘rnini bosishi mumkin deb hisoblagan boshqa narsalardan ham foydalanadilar. Masalan, o‘yin jarayonida bola cho‘pni qoshiq yoki termometr o‘rnida, yog‘ochdan yasalgan krovat yoki mashina o‘rnida foydalanishi mumkin.

Tarbiyachi – pedagog bolalar nutqining rivojlantrish bilan shug‘ullanar ekan, maktabgacha yoshdagi bolalar ba’zi hollarda o‘z nutq apparatlarini to‘la idora eta olmasliklarini unutmaslik kerak. Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarda murakkab nutq tovushlarini bir – biridan farq qilish qobiliyati hali to‘la mukammallashmagan bo‘ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi ba’zi bolalar ayrim nutq tovushlarini buzib talaffuz etadilar. Buni asta – sekin tuzatish mumkin. Demak, bog‘cha yoshidagi bolalarning boshqa bolalar bilan bo‘lgan ancha murakkab va xilma-xil munosabat turlari shakllanadi va ana shu munosabatlar ma'lum miqdorda uning shaxs sifatida shakllanishini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.M.X.Asranbayeva, D.D.Oribboyeva, D.D.Boymirzayeva "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" [Matn]: darslik / - Toshkent: "Tafakkur avlodi", 2023.
2.Радугина А.А. Педагогика и психология.-М., 2007.
3.Otavaliyeva U. Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi. "O‘qituvchi" T.,1994
4.Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. -T., "O‘qituvchi" 1993